Zaripova Nigora

Romitan tuman 1-son politexnikumining

“Ingliz tili” fani o’qituvchisi

LENGSTON HYUZ SHE’RLARIDA MILLIY OZODLIK MAVZUSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr Amerika adabiyotining yorqin namoyondasi, o’z millat erki va ozodligini kuylagan shoir Lengston Hyuzning vatanparvarlik, o’z millatidan faxrlanish tuyg’ulari ifodalangan “The Negro speaks of rivers” va “My people” (“Birodarlarim”) she’rlarining tahlili keltirilgan.

Kalit so’zlar

ozodlik, erk, millat, , daryolar,qadim, ko’hna, qora

Annotation

This article presents an analysis of the poems "The Negro speaks of rivers" and “My people” which express the feelings of patriotism and pride of the nation by the poet Langston Hughes, who is a bright manifestation of 20th century American literature, who sang about the will and freedom of his nation.

Key words

freedom, liberty, nation, rivers, ancient, old, black

Аннотация

В данной статье представлен анализ стихи «Негр говорит о реках», «Мои люди» выражающие чувства патриотизма и гордости за нацию поэта Лэнгстона Хьюза, являющегося ярким проявлением американской литературы XX века, воспевшего о волю и свободу своего народа.

Ключевые слова

свобода, , нация, реки, древние, старые, черные.

Lengston Hyuz (inglizcha James Mercer Langston Hughes) XX asr amerika adabiyotining ko’zga ko’ringan shoirlaridan biri, jamoat arbobi, Amerika madaniyatida yorqin iz qoldirgan “Harlem Renessansi “ harakatining shakllanishida asosiy o’rin egallagan shaxs.1901-yilning 1-fevralida AQSHning Missuri shtatida tavallud topgan shoir bolaligidanoq irqiy kamsitilish muhitida yashagan ajdodlaridan olgan tarbiyasiga ko’ra o’z millati va irqiga nisbatan chuqur faxr tuyg’usi bilan ulg’aydi. Ayniqsa uning tarbiyasidagi yetakchi shaxs hisoblangan buvisi Meri Pettersonning unga ta’siri har doim kamsitilib kelingan millati oldida o’zini burchli deb bilishga olib keldi. Asrlar osha xo’rlangan va eng quyi tabaqa hisoblangan, jirkanilgan xalqning ovozi

bo'lishni Hyuz o'z burchi deb bildi va millatining boshqa millatlar bilan teng huquqli bo'lish orzularini o'z she'rlarida kuyladi. Uning she'rlaridagi asosiy qahramon bu- ba'zan tushkunlikka tushuvchi, ba'zan kelajakka umid bilan boquvchi qora tanli inson. Uning she'rlarida yetakchi mavzu qora tanli insonlarning oq tanlilar bilan bir qatorda teng huquqlarga ega bo'lishi edi. U hattoki 1922-yilda o'zi tahsil olayotgan Kolumbiya universitetidan aynan mana shu irqiy kamsitilishlar tufayli o'qishni tugatolmay ketishga majbur bo'ladi. Garchi keyinchalik Pensilvaniya shtatidagi asosan qora tanlilar tahsil olgan Linkoln universitetini tamomlasada (1929), o'sha voqea uning hayotida chuqur iz qoldirgan. Hyuz o'zining hech bir asarida qora tanli ekanligidan uyalmaydi. Uning ilk she'rlaridan biri "Qora tanli qalb daryolar haqida" (inglizcha "The Negro speaks of rivers") she'ri uning dastxatiga aylandi va Amerika she'riyat dunyosida yangi ovoz paydo bo'lganligini ko'rsatdi.

1920 yillarda Amerikaning bir qancha shaharlarida, jumladan, Harlemda qora tanlilar orasida yangi adabiy, madaniy oqim paydo bo'ldi va Hyuz uning yetakchi siymolaridan biri edi. U o'z ijodida har doim qora tanli ishchi sinfining hayotidagi shodlik va g'am-anduhlarini bor bo'yicha samimiy, ortiqcha hissiy bo'yoqlarsiz ifodalashga harakat qildi. "Qora tanli san'atkor va Irq tog'I" essesida Hyuz: "Biz – yosh negr ijodkorlar .o'zimizning qora tanli shaxsiyatimizni qo'rquv va uyalishlarsiz ifodalashni niyat qildik. Agar bu oq tanlilarga yoqsa, biz bundan mamnunmiz, agar ularga bu yoqmasa, bizga buning farqi yo'q. Biz o'zimizning chiroyli ekanligimizni bilamiz, va xunuk ham." degandi faxr bilan.

Ilk marta 1921-yilda uning dastlabki she'ri "**The Negro speaks of rivers**" ("Qora tanli qalb daryolar haqida") "The Crisis" gazetasida nashr etiladi (uning she'rlari asosan mana shu nashrda chop etilgan). Bu she'rda Hyuz shu paytgacha odamlar ongida bo'lgan qora tanlilar haqidagi stereotiplarni o'zgartirishga urinadi. Bu she'r yozilgan paytda u bor yo'g'I 17 yoshli yigitcha bo'lishiga qaramay juda chuqur mulohaza yurita olgan va adabiy tanqidchiar e'tiboriga tushib ulgurgan. Hyuzning otasi Amerikadagi irqiy kamsitilish va tahqirlardan qochib Meksikaga borib yashaydi va bu she'r aynan yosh Hyuz otasini ko'rish uchun poyezdda Meksikaga borayotganida yo'lda yozilgan. "Men daryolarni bilaman" deb boshlanuvchi bu she'rda Furot, Kongo, Nil va Missisipi daryolarini tilga olish bilan Hyuz Afrika xalqining tarixi boyligi va juda qadimligini sharaflaydi.

I've known rivers:

I've known rivers ancient as the world and older than the flow of human blood in human veins.

She'rning shunday boshlanuvchi dastlabki misralarida shoir dunyoning o'zi kabi ko'hna, insoniyat tomirlarida oquvchi qondan ham ko'hnaroq daryolarni bilishini aytadi. Bu daryolar insoniyat tarixiga hissa qo'shgan Afro-Amerikanlarning donolik , matonat va bardosh ramzidir

My soul has grown deep like the rivers.

Qalbim ham daryolarday chuqurlashdi.

Bu misrada muallif tashbeh san'atidan foydalanib, qalbini daryoga o'xshatishida Afrika xalqining qiyinchiklarda toblangan qalbini ifodalayapti.

I bathed in the Euphrates when dawns were young.

Dunyo hali yoshligida men Furotda cho'mildim.

“Dawn” so’zi tong, boshlanish, ibtido ma’nolarini anglatadi. Bu yerda esa dunyo xalqlari hali endi shakllanayotgan bir paytda Afrika xalqining insoniyatning dastlabki sivilizatsiya markazlaridan biri bo’lgan Furot daryosida cho’milishi jumlasini keltirish orqali shoir bu xalqning juda qadim-qadimdan mavjudligiga ishora qiladi va shuningdek, daryoda cho’milish poklik, poklanish ramzi degan fikrdan kelib chiqsak, bu xalqning terisi qora bo’lsada o’zi pokligini nazarda tutadi.

I built my hut near the Congo and it lulled me to sleep.

Kongo yaqinida kulbamni qurdim va u meni allalab uxlatdi.

Ma’lumki, Kongo daryosi Afrika xalqlari uchun Vatan,makon, yupanch ma’nolarini bildiradi va bu misralardan Afrikaliklar Kongo yaqinidan makon tutganliklari va bu daryo ularga onaday yupatuvchi, allalovchi , himoyalovchi ekanligi anglashilyapti.

I looked upon the Nile and raised the pyramids above it.

Nil ustidan qaradim , unda ehromlar qurdim.

Bu misralar bilan shoir dunyo tamadduni rivojiga hissa qo’shgan Nil daryosining Afrikada ekanligiga va kuch-qudrat ramzi bo’lgan ehromlar ham aynan Afrikada ekanligiga ishora qilyapti.

I heard the singing of the Mississipi when Abe Lincoln went down to New Orleans,

And I’ve seen it’s muddy bosom turn all golden in the sunset.

Abe Linkoln Yangi Orleanga kelganda Mississipining kuylashini eshitdim

Va botayotgan quyosh nurlarida uning loyga belangan bag’ri oltinga aylanganini ko’rdim.

Tarixiy voqealarga ishora qiluvchi bu misralarda Hyuz Afrika xalqlarining Amerikaga qul qilib olib kelinganligi, Yangi Orlean shtatining qul savdosi markazi bo’lganligiga kesatiq ishora va irqchilikka barham bergan prezident Avraam Linkoln siymosi orqali loyga belangan bag’irning oltinga aylanishida qul bo’lgan millatning yana ozod bo’lishi tasvirlarini keltirgan.

I’ve known rivers:

Ancient, dusky rivers.

My soul has grown deep like the rivers.

Daryolarni bilaman, qadim, qora daryolar.

Daryolarday chuqurdir qalbim.

Takrorlash san’ati qo’llanilgan oxirgi jumlalarda daryolarning qadimligi bu millatning ko’hnaligini va daryolarning qoraligi timsolida Hyuzning o’z rangidan uyalmay dadil tasvirlashi ifodalangan.

Hyuz har doim o'zining qora tanli millati shoiri bo'lib ular nomidan kuyladi va jamiyatdagi qora tanli insonlarga bo'lgan munosabat va ularning jamiyatda tutgan mavqening qadrsizlanishiga qarshi kurashdi.

Keling, endi yana bir boshqa "**Birodarlarim**" ("**My people**") she'rini tahlil qilib ko'ramiz. Bu she'r ham "The Crisis" ("Inqiroz") gazetasida 1923-yil oktabr nashrida chop etilgan. Olti satrdan iborat qisqagina bu she'rda shoir oddiylik va buyuklikni jamlay olgan.

The night is beautiful,

So the faces of my people.

Tun go'zaldir birodarlarim yuziday.

Shu paytgacha qora tanli shoirlarning hech biri o'z terisining rangi qoraligini madh etmagan, aksincha ular o'zlarining faqat eng yaxshi tomonlarinigina ko'rsatganlar.Langston Hyuz esa yuzi qora rangdaligini metafora san'atidan foydalangan holda tunning go'zalligiga qiyoslaydi.

The stars are beautiful,

So the eyes of my people

Yulduzlar go'zaldir birodarlarim ko'ziday

Odatda she'riyatda yulduz "umid" tuyg'usini ifodalaydi, shuningdek, bu yerda ham metafora orqali shoir o'zining qorako'z millatining ko'zlaridagi umidni tasvirlagan.

Beautiful, also, is the sun.

Beautiful, also, are the souls of my people.

Yana oftob ham go'zaldir birodarlarim qalbiday.

Avvalgi satrlarda qahramonning tashqi go'zalligi madh etilgan bo'lsa, endi uning ichki go'zalligi ta'riflanayapti. Oftob ramzi har doim qalbi iliqlik, mehrga to'lalik va rahm shafqat siymosi bo'lib kelgan. Bu bilan shoir asrlar mobaynida qul qilib eng og'ir ishlarni bajarish buyurilgan , xo'rlangan qalb o'zining qalbi iliqlik fazilatini yo'qotmaganligiga ishora qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Lengston Hyuz adabiyot olamiga yangicha bir ruh, ovoz olib keldi-sof Afrika qora tanli shoir ovozi, o'zining aynan mana shu qora tanli ekanligidan faxrlanuvchi, bundan uyalib, qisinib qimtinmagan, aksincha , dunyoga yetakchilik qilayotgan boshqa xalqlar hali mavjud bo'lmagan bir paytda jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shib ulgurgan xalqning faxrlanishga arzigulik jihatlarini topa olgan va buni barilla kuylay olgan shoir ovozi. To'g'ri, uning bu uslubi boshqa qora tanli shoirlarga yoqmagandi va ular buni juda ko'p tanqid qilishdi. Boisi, ular har doim o'zlarining eng yaxshi tomomlarini ko'rsatib jamiyatda yuqori mavqeda turuvchi oq tanlilarda bor xislatlarnigina havas qilarlik xislat deb bilishardi va faqat ularni ideal deb hisoblashardi. Ulardan farqli ravishda Hyuz esa o'zida bor xususiyatlardan go'zallikni ko'ra oldi va millatdoshlarini ham aynan mana shunday fikrlashga, o'z millatidan faxrlanishga chaqirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schuessler, Jennifer. „Langston Hughes Just Got a Year Older“ (inglizcha). The New York Times.
2. Faith Berry, Langston Hughes, Before and Beyond Harlem, Westport, CT: Lawrence Hill & Co., 1983; reprint, Citadel Press, 1992,
3. Langston Hughes. The Big Sea, 1940 — 13-bet. ISBN 0-8262-1410-X.
4. West, Encyclopedia of the Harlem Renaissance, 2003, p. 160.
5. “ Rampersad, Arnold, & David Roessel (2002). The Collected Poems of Langston Hughes, Knopf, p. 620.
6. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/lengston-huyuz-sherlar.html